

## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

### HOZIRGI KUNDA YURTIMIZ YOSHLARIGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR HAMDA ULARNI QO'LLAB-QUVVATLASHDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING KENG KO'LAMLI ISLOHOTLARI

**Lobarxon Bazarbayeva**

*Qoraqalpoq Davlat universiteti, Qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistika fakulteti sirtqi  
bo'lim 4-bosqich talabasi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda yurtimiz yoshlariga berilayotgan imkoniyatlar hamda ularni qo'llab-quvvatlashda yoshlarga oid davlat siyosatining keng ko'lamli islohotlariga oid fikr-mulohazalar berilgan yoshlari toifasi, yoshlarga oid davlat siyosatining amalga kiritilishi, yoshlarning qamrovi, shuningdek yoshlarni birlashtirish hamda ularning davlat boshqaruvi organlarida faol ishtiroki yoritilgan. Dunyo miqyosida jamiyat barqarorligini harakatlantiruvchi kuchi sifatidagi yoshlarning o'rni, ularning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi masalalari, turli mamlakatlarda yoshlari bo'yicha olib borilayotgan umumiy siyosat bugungi kunning dolzARB masalalaridan biri sanaladi. Mazkur maqolada ham O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** yoshlari, davlat, tashkilot, yoshlari ittifoqi, qurultoy, delegatsiya, siyosat, tashabbus, vatanparvarlik, tashabbuskorlik, keng islohotlar, qonunlar, yoshlari huquqi, intellektual salohiyat, yoshlarga oid davlat siyosati, ta'lim-tarbiya, yosh avlod.

**Аннотация:** В данной статье возможности, предоставленные молодежи нашей страны и широкомасштабные реформы государственной политики в отношении молодежи в их поддержку, категория молодежи, реализация государственной политики в отношении молодежи, охват молодежи, а также объединение молодежи и ее активное участие в органах государственного управления. Место молодежи как движущей силы стабильности общества в глобальном масштабе, вопросы ее социальной адаптации в обществе, общая политика молодежи в разных странах считаются одними из актуальных вопросов современности. В данной статье также рассказывается о государственной политике в отношении молодежи в Республике Узбекистан.

**Ключевые слова:** молодежь, государство, организация, союз молодежи, съезд, делегация, политика, инициатива, патриотизм, инициатива, широкие реформы, законы, права молодежи, интеллектуальный потенциал, государственная политика в отношении молодежи, образование, молодое поколение.

**Abstract:** In this article, the opportunities given to the youth of our country and the wide-scale reforms of the state policy regarding youth in their support, the category of

## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

youth, the implementation of the state policy regarding youth, the coverage of the youth, as well as the unification of the youth and their active participation in the state administration bodies are given. illuminated. The place of young people as the driving force of society's stability on a global scale, the issues of their social adaptation to society, the general policy of youth in different countries are considered to be one of the urgent issues of today. This article also talks about the state policy regarding youth in the Republic of Uzbekistan.

**Key words:** youth, state, organization, youth union, congress, delegation, policy, initiative, patriotism, initiative, broad reforms, laws, youth rights, intellectual potential, state policy regarding youth, education, young generation .

### KIRISH

Ta'kidlab o'tish lozimki, mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

### ASOSIY QISM

Mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish va yangi yuksak sifat bosqichiga ko'tarish hamda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunda belgilangan vazifalarning to'laqonli ijrosini tashkil etish maqsadida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institatlari tomonidan ushbu yo'nalishda samarali hamkorlikni amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hozirgi davr talabi va ehtiyojlaridan kelib chiqib, yurtimizda yoshlar muammosiga alohida e'tibor qaratildi, ularning manfaat va ehtiyojlarini ta'minlash uchun keng imkoniyatlar yaratishga kirishildi, ya'ni bevosita yoshlar masalalariga mas'ul davlat va jamoat tashkilotlardan vakillar tayinlanib, bu borada keng islohotlar qilindi. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlarining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, ta'lim muassasalarida yoshlar masalalariga mas'ul lavozimlari, shuningdek, 2022-yil 19-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-son

## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

qarori bilan Respublika bo'yicha mahallalarga 9309 ta "Yoshlar yetakchisi" shtat birliklari joriy qilinishi va eng muhimi, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan tegishli qonunlarda nazarda tutilgan yoshlarimiz huquq va manfaatlarini o'zaro hamkorlik asosida himoya qilinishi yaqqol so'zimizning isbotidir.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati quyidagi qoidalarga asoslanadi:

millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqeい, jinsi, ma'lumoti va siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar yoshlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish;

yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish;

milliy, madaniy an'analarning avloddan-avlodga o'tishi, avlodlarning ma'naviy aloqasi;

yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, yoshlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida o'z manfaatlarini amalga oshirish yo'llarini erkin tanlab olishlariga kafolat berish;

jamiyatni rivojlantirishga, ayniqsa respublika yoshlari hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirot etishi;

huquq va burchlarning, erkinlik va fuqarolik mas'uliyatining birligini ta'minlash.

Yoshlarga oid davlat siyosati yuqoridagi qoidalarga binoan o'z mazmunini doimiy takomillashtirish, muntazam ravishda o'z e'tiborini jamiyat hayotining eng murakkab jihatlariga qaratish yo'naliishlarida keng rivojlantirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida yosh avlodga qaratilgan davlat siyosatining bosh tamoyillari davrga hamohang tarzda takomillashib, o'z mazmunini boyitib hamda ichki sur'atini namoyon etib bormoqda. Buning natijasida yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishi sohasida O'zbekiston Respublikasida quyidagi vazifalar belgilandi:

respublika hududida yoshlarga oid davlat siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va tashqiliy asoslarini belgilash;

yoshlarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ta'minlash;

yoshlarga oid davlat siyosati boshqaruv idoralarini tuzish;

yoshlarga oid davlat siyosati sohasida Respublikada kompleks va aniq maqsadli dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga mo'ljallangan moliyaviy mablag'larni tasarruf etish;



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

respublika yoshlarining manfaatlarini O'zbekistonning xalqaro majburiyatlari doirasida ifodalash;

respublika hududida yoshlarning va ular birlashmalarining ijtimoiy munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish;

respublika yoshlarining, yoshlar jamoat uyushmalarining tashabbuslarini ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy- huquqiy va tashqiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

hamma huquq sub'ektlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlarida yoshlarga nisbatan belgilab qo'yilgan majburiyatlariga rioya etishlarini nazorat qilish, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid siyosatni shakllantirish hamda amalga oshirishning boshqa masalalari.

Yuqorida belgilangan vazifalar asosida mamlakatda ta'lim sohasini bosqichma-bosqich, aniq maqsadga yo'naltirilgan holda isloh qilish bo'yicha uzoqni ko'zlagan dasturlar izchil amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekistonni yoshlar mamlakati desak mubolag'a bo`lmaydi. O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini 60 foizdan ortig`ini 30 yoshgacha bo`lgan yoshlar tashkil etadi. Bilamizki, davlatning poydevori yoshlar hisoblanadi. Yoshlarni birlashtirish asosiy vazifa hisoblanib buning uchun bir nechta tashkilotlar tuzilgan.

Shuningdek mustaqillikka erishganimizdan buyon yoshlarga e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin mamlakat yoshlarini birlashtirish uchun "Yoshlar ittifoqi" tashkiloti tuzildi. Ushbu tashkilot yoshlarning huquq va manfaatlari himoya qilishga ularda ijod tuyg'ularini shakllantirish maqsadida o'z faoliyatini olib bordi. Biroq tashkilot yoshlarni o'z plenumi va konferensiya qarorlarini bajarishga safarbar qilishga urinishi, qarorlarda yoshlarning manfaatlari va ehtiyojlari to`la aks etmaganligi natijasida 1996- yil "Yoshlar ittifoqi" tashkiloti tugatilib, O'zbekiston Respublikasi yoshlarining "Kamolot" jamg`armasi tuzildi. Bu tashkilot yillar davomida o'z faoliyatini olib bordi. 2001-yilda Toshkentda bo`lgan yoshlar qurultoyida o`zini o`zi boshqaradigan nodavlat notijorat tashkilot O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tuzildi. Bu tashkilot 14 yoshdan 28 yoshgacha bo`lgan O'zbekiston fuqarolarini birlashtirgan holda ish olib bordi. 32 Albatta, bu tashkilotlar iqtidorli yoshlarni aniqlashda ko'maklashdi, ularni iqtidorini namoyon qilishi uchun sharoit yaratib berdi va keng imkoniyatlarni taqdim etdi.

2016-yilda "Yoshlarga oid davlat siyosati to`g`risidagi"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Unga ko`ra, 30 yoshgacha bo`lgan barcha toifadagi shaxslar yoshlar ekanligi qayd etilgan.

## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

2017-yil 30-iyun kuni O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokida "Kamolot" Yoshlar ijtimoiy harakati qurultoyi bo`lib o`tdi. Bu qurultoyda "Kamolot" Yoshlar ijtimoiy harakati tugatilganligi va "O`zbekiston yoshlar ittifoqi" tashkil etilganligi e`lon qilindi. Hozir ham bu tashkilot o`z faoliyatini olib bormoqda.

Bizning davlatimizda yoshlarga imkoniyat yildan yilga oshib bormoqda desak mubolag`a bo`lmaydi, chunonchi Qaysi tarmoq, qaysi yo`nalish bo`lmasin barcha sharoitlar mujassam. IT sohasini o`rganish, xorijiy tillar sohasini o`rganish bo`yichami, umuman olganda barcha tarmoqlarda imkoniytlar mavjud. Biz yoshlardan talab qilinadigan narsa, faqatgina, shu imkoniyatlardan oqilona foydalanish, kelajakda yurt ravnaqi uchun o`z hissamizni qo`shishimiz lozim. Yoshlarga e`tibor nafaqat bizning yurtimizda, balki jahonda ham muhim o`ringa ega.

Taniqli siyosatchi, Parlamentlararo ittifoqning Bosh kotibi Martin Chungong rasmiy boshliq delegatsiya mamlakatimizga tashrif buyurganida, u kishi bir fikrni afsus bilan takidladi. Ya`ni sayyoramiz aholisining yarmidan ko`pini 30 yoshgacha bo`lgan insonlar tashkil etsada, butun dunyo bo`yicha yosh deputatlarning ulushi 2.6 foizga ham yetmas ekan. Oliy martabali mehmon O`zbekistonda bu ko`rsatkich 6 foizdan oshganini yuqori baholadi. Bu - katta e`tirof, albatta. Biz g`oyat muhim yo`nalishdagi bu ishlarimizni davom ettirgan holda, Parlamentlararo ittifoq ko`magida "Biz parlamentda yoshlarni qo`llab-quvvatlaymiz!" degan ezgu tashabbusni amalga oshiramiz. Bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismoniy va ma`naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g`oyat muhim vazifa bo`lib qolmoqda.

Davlatimizda faqatgina yigitlarga e`tibor qaratmasdan, yosh qizlarga ham imkoniyatlar yaratilmoqda. Yosh yigit-qizlarni qo`llab-quvvatlash maqsadida bir nechta sovrinlar tashkil qilingan.Ular misol qilib "Mard o`g`lon", "Zulfiya" nomidagi davlat mukofotlari keltirishimiz mumkin. 2017-yilga kelib 14 yoshdan 22 yoshgacha bo`lgan qizlardan iborat "Zulfiya" mukofoti sovrindorilarning soni 200 dan oshdi.<sup>34</sup>

Mana shunday rag`batlantirishlar yoshlarga katta shijoat bag`ishlaydi, ularning maqsadlari sari dadil qadam tashlashlariga ko`maklashadi. Yoshlarni Vatan ruhida tarbiyalashga ko`maklashadi. Albatta, biz yoshlar bu imkoniyatlardan oqilona foydalanishimiz, yurtimiz rivojlanishi uchun o`z hissamizni qo`shishimiz lozim. Zero, har bir inson tug`ildimi, shu yurti uchun, Vatanining ravnaqi uchun o`z hissasini qo`shishi lozim.Davlat siyosatida yoshlarga imkonyatlar keng, turli qonunlar yaratilgan va yaratilmoqda, hatto, yillarning



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

nomida ham yoshlar so`zi aks etmoqda. Yoshlarni o`z sohasi bo`yicha shug`ullanishi uchun davlatimiz keng ko`lamli ishlarni olib bormoqda. Besh tashabbus loyhalari ishlab chiqilib, ularni amalga oshirish nazorati olib borilmoqda.

Yurtimizda yoshlarga oid siyosatni yanada amalga oshirish uchun seleksiya tizimini rivojlantirishni tavsiya etaman. Seleksiya tizimi bu lotincha saralash tanlash ma`nolarida qo`llaniladi.<sup>35</sup> Bu nima degani, shu O`zbekistonning eng chekka hududlarida qobilyatli yoshlarni tanlab olish, ularni o`z qobiliyati bo`yicha yo`naltirish, kerakli sharoitlarni yaratib berish. Masalan, bir qishloqda sport bo`yicha qobilyatli bola borligini o`sha mактабдаги yoshlar bilan ishlovchi bo`lim biladi, lekin bolaning sport bilan shug`illanishiga sharoitai yo`q va bu haqida darrov sport tashkilotlariga ma'lumot yekazishi lozim. Ular bu bolaning qobilyatini ko`rib, u bilan alohida shug`ullanadi, sharoitlar yaratib beradi va kelajakda musobaqalarda ishtirok etishi uchun zamin yaratiladi, shunda seleksiya tizimi ishga tushgan bo`ladi. Buni nafaqat sport sohasida balki, boshqa sohalarda ham shunday qilish lozim.

Hozirgi kunda yoshlardan birgina talab, shu imkoniyatlardan oqilona foydalanish.

Yoshlar siyosati jamiyatni rivojlantirish va ijtimoiy o`zgarishlarning muhim omili sifatida turli mexanizm, uslub va strategiyalarni ishlab chiqishni hamda izchil ravishda amaliyatga tadbiq etishni taqozo etadi.

Davlatdagi ijtimoiy barqarorlik ko`p jihatdan yoshlarning barcha qatlamlariga yo`naltirilgan kuchli ijtimoiy himoyaga, ularning tashabbuslarini qo`llab-quvvatlash hamda imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda yetarli shart-sharoit yaratilganiga bog'liqdir.

O`zbekiton - yoshlar mamlakati. Shu bois, yoshlar ta`lim-tarbiyasi va kamolotiga alohida e'tibor qaratiladi. eng avvalo, bu sohadagi ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslari doimiy takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, O`zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to`g`risida»gi qonunda yoshlarni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilish, iste'dodini qo`llab-quvvatlash masalalari qamrab olingan. Shuningdek, yoshlarning bepul umumiyligi ta`lim olish huquqining kafolatlangani ham e'tiborga molikdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda iste'dodli yoshlarni qo`llab-quvvatlash maqsadida Prezident maktablari, Temurbeklar maktabi, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarga berilayotgan zamонавија ta`lim-tarbiya Yangi Renessansning mustahkam poydevori bo'lmoqda. Oliy ta`lim sohasidagi islohotlar va imkoniyatlar esa yigit-qizlarning malakali mutaxassis bo`lib hayotga kirib kelishida muhim omil bo'lmoqda. So`nggi yillarda bu borada qator qo`llab-

## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

quvvatlash, rag'batlantirishda, rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini yuksaltirishda yangi tizimni shakllantirdi. Quvonarli tomoni shundaki, zamon talablari va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida bugungi yoshlarning talab va ehtiyojlarini o'rganib, yangidan- yangi imtiyoz va imkoniyatlar eshigi ochib berilmoxda.

Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosatini zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning tashabbuslarini alohida ta'kidlash lozim. Davlatimiz rahbarining yoshlar kamolotiga qarayotgan doimiy e'tibori, ayniqsa, ta'lif islohotlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu islohotlarning yutug'i esa yoshlarning davlat va qonunlarga ishonchini kuchaytirmoqda.

Yana bir quvonarli xabar shundaki, ilm yo'llini tanlagan iqtidorli yoshlарimizni qo'llab-quvvatlash maqsadida keyingi yildan boshlab magistratura va doktorantura bosqichlari uchun Prezident stipendiyasi kvotasini ikki barobarga oshiriladi.

Ishonchim komilki, bunday imkoniyat va imtiyozlar yosh avlodni ertamizning munosib davomchilari etib tarbiyalashda yorqin istiqbollarni ochadi.

### XULOSA

Xulosa o'rнida ta'kidlash lozimki, davlatimiz rahbari tomonidan barkamol avlod tarbiyasi mamlakat taqdiriga dahldor eng ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Ularning kuch va salohiyatini yurt tinchligi, vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi sari safarbar etishda o'z aksini topmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Karimov I.A.ning "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ\_2129 son qarori.-T.: 2014.
2. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun. 1-modda
3. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi // 1992 y., 2-son.
4. Mirahmedova U. Axborot asrida yoshlar dunyoqarashi: Nazariya va amaliyot mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami.- Toshkent, 2010.
5. Ijtimoiy-madaniy shaxs sifatida mukammal va har tomonlama rivojlangan shaxs g'oyasi inson taraqqiyotidagi hodisa // Aziza Aripova, 2021.

## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

6. "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferentsiyasi 2019 yil UO'K: 005
7. O'zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatining tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida PF-6017сон. - : 2020
8. O'zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida Vazirlar Mahkamasining qarori. - : 2021
9. Shavkat Mirziyoyev. Asarlar. "1-Jild. Milliy Taraqqiyot Yo'limizni Qatiyat Bilan Davom Ettirib, Yangi Bosqichga Ko'taramiz".